



BUYRAKLARDA UCHRAYDIGAN XAVFLI O'SMALARNI ANIQLASHDA MSKT NING DIAGNOSTIK AHAMIYATI

Maxkamov M.A.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19945523>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 26-aprel 2026 yil
Ma'qullandi: 28-aprel 2026 yil
Nashr qilindi: 30-aprel 2026 yil

KEYWORDS

buyrak o'smalari, buyrak saratoni, MSKT, diagnostika, kompyuter tomografiya.

ABSTRACT

Buyrak o'smalari siydik chiqarish tizimi kasalliklari orasida muhim o'rin egallaydi. Ularni erta aniqlash kasallikning samarali davolanishi va bemor hayot sifatini yaxshilashda muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy diagnostika usullaridan biri multislice kompyuter tomografiya (MSKT) hisoblanadi. Ushbu maqolada buyraklarda uchraydigan xavfli o'smalarni aniqlashda MSKT ning diagnostik imkoniyatlari keng tahlil qilindi. MSKT yordamida o'smaning joylashuvi, o'lchami, tuzilishi, qon bilan ta'minlanishi hamda atrof to'qimalarga invaziya darajasi yuqori aniqlik bilan baholanishi mumkin. Bundan tashqari, limfa tugunlari zararlanishi va uzoq metastazlarni aniqlash imkoniyati mavjud. Tadqiqot natijalari MSKT buyrak o'smalarini aniqlash, differensial diagnostika qilish hamda kasallik bosqichini (staging) baholashda yuqori informativ usul ekanligini ko'rsatadi.

Buyrak o'smalari urologik kasalliklar orasida keng tarqalgan patologiyalardan biri hisoblanadi. Ularning eng ko'p uchraydigan turi buyrak hujayrali karsinoma bo'lib, umumiy buyrak o'smalarining asosiy qismini tashkil etadi. So'nggi yillarda ushbu kasallik bilan kasallanish ko'rsatkichlari ortib bormoqda, bu esa uning erta diagnostikasi va samarali davolash usullarini ishlab chiqishni dolzarb masalaga aylantirmoqda.

Buyrak o'smalari ko'pincha dastlabki bosqichlarda klinik belgilsiz rivojlanadi, bu esa kasallikni erta aniqlashni qiyinlashtiradi. Shu sababli instrumental diagnostika usullari alohida ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy tibbiyotda buyrak o'smalarini aniqlash uchun turli diagnostika usullari qo'llaniladi. Ulardan biri multislice kompyuter tomografiya (MSKT) bo'lib, u yuqori aniqlikka ega bo'lgan zamonaviy radiologik tekshiruv usuli hisoblanadi. MSKT yordamida buyrak to'qimalari, qon tomirlari va o'smalarning atrof to'qimalarga tarqalishi haqida batafsil va qatlam-qatlam ma'lumot olish mumkin.

Tadqiqot materiali va usullari

Ushbu tadqiqotda buyrak o'smasi gumoni bilan tekshiruvdan o'tgan bemorlar MSKT usuli yordamida tekshirildi. Tekshiruv multislice kompyuter tomografi yordamida amalga oshirildi.

Tadqiqot jarayonida kontrast modda qo'llanilib, buyrak parenximasi, o'smaning o'lchami, shakli, chegaralari va joylashuvi baholandi. Tekshiruv bir necha fazalarda (arterial, venoz va ekskretor fazalar) o'tkazildi, bu esa o'smalarining vaskulyar xususiyatlarini aniqlash imkonini berdi.

Shuningdek, o'smaning qon tomirlari bilan aloqasi, buyrak venasi va pastki kovak venaga invaziyasi, atrof to'qimalarga o'sib kirishi hamda limfa tugunlarining holati o'rganildi. MSKT yordamida buyrak o'smalarining lokalizatsiyasi, tuzilishi, zichligi va metastazlari aniqlanishi mumkinligi tahlil qilindi.

Aldosteroma

Aldosteroma (birlamchi giperaldosteronizm yoki Konn sindromi) buyrak usti bezining po'stloq qismidagi koptokcha (glomerulyar) zonadan rivojlanadigan o'smadir. Ko'pchilik hollarda bu o'sma yaxshi sifatli bo'lib, faqat taxminan 5 % bemorlarda xavfli shakli uchraydi. Ushbu o'smaning asosiy xususiyati shundaki, u organizmda aldosteron gormonining ortiqcha ishlab chiqarilishiga olib keladi.

Patogenezi

Aldosteronning ortiqcha miqdorda ajralishi organizmda turli biokimyoviy hamda morfologik o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. Eng avvalo, elektrolitlar muvozanati sezilarli darajada buziladi.

Aldosteron buyrak kanalchalariga ta'sir qilib, natriyning qayta so'rilishini kuchaytiradi, shu bilan birga kaliy ionlarining siydik orqali chiqarilishini oshiradi. Natijada qonda kaliy miqdori kamayib, gipokaliemiya (3,0 mmol/l dan past) rivojlanadi.

Hujayralarda kaliy ionlarining kamayishi natriy va vodorod ionlari bilan almashinish jarayonini kuchaytiradi. Natriy ionlarining ortishi esa hujayra ichi va hujayra tashqarisidagi suyuqliklarda natriy miqdorining ko'payishiga olib keladi. Natriyning gidrofil xususiyati tufayli suvni o'ziga tortishi natijasida to'qimalarda, ayniqsa qon tomirlari devorida shish rivojlanadi.

Bu holat tomirlar lümenining torayishiga olib kelib, periferik qarshilikni oshiradi va arterial gipertenziya shakllanishiga sabab bo'ladi.

Klinik belgilar

Konn sindromi ko'pincha yosh yoki o'rta yoshdagi ayollarda uchraydi. Kasallik belgilari odatda uch asosiy guruhga bo'linadi:

Neyro-mushak simptomlari

Gipokaliemiya natijasida nerv-mushak o'tkazuvchanligi buziladi. Bemorlar mushaklarda kuchsizlanish, tez charchash kabi shikoyatlar bildiradilar. Ayrim hollarda falajlik, paresteziya va mushak spazmlari kuzatiladi.

Buyrak bilan bog'liq simptomlar

Aldosteronning buyrakka ta'siri natijasida poliuriya, nikturiya va gipostenuriya rivojlanadi. Bu holat kuchli tashnalik (polidipsiya) bilan kechadi.

Arterial gipertenziya bilan bog'liq simptomlar

Arterial gipertenziya kasallikning asosiy belgilaridan biridir. Qon bosimi ko'pincha 160/100 mm Hg dan yuqori bo'ladi va dori vositalariga nisbatan rezistent bo'lishi mumkin.

Diagnostika

Konn sindromini aniqlash klinik belgilar, laborator va instrumental tekshiruvlar asosida amalga oshiriladi.

Radioimmun tahlil yordamida qon plazmasida aldosteron miqdorining oshgani aniqlanadi. Shu bilan birga, plazma renin faolligining pasayishi diagnostik ahamiyatga ega.

Biokimyoviy tekshiruvlarda gipokaliemiya va gipernatriemiya aniqlanadi. Siydik reaksiyasining ishqoriy bo'lishi ham muhim belgidir.

Instrumental usullar orasida ultratovush tekshiruvi (UTT) va kompyuter tomografiyasi (KT) muhim o'rin tutadi. MSKT yordamida kichik o'lchamli (1,5–2 sm) o'smalarni aniqlash va ularning aniq lokalizatsiyasini belgilash mumkin.

Davolash

Aldosteroma aniqlangan bemorlarda asosiy davolash usuli jarrohlik hisoblanadi. Bunda buyrak usti bezini olib tashlash operatsiyasi – adrenalektomiya bajariladi. Operatsiyadan so'ng ko'pchilik bemorlarda arterial bosim normallashadi va elektrolit muvozanati tiklanadi.

Natijalar va muhokama

O'tkazilgan tekshiruvlar natijasida MSKT usuli buyrak o'smalarini aniqlashda yuqori diagnostik ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi.

Ushbu usul yordamida:

- o'smaning aniq joylashuvi
- o'lchami va shakli
- ichki tuzilishi (nekroz, gemorragiyalar)
- kontrastlanish darajasi aniqlanadi.

Bundan tashqari, o'smaning buyrak kapsulasidan tashqariga chiqishi, qo'shni organlarga tarqalishi, limfa tugunlariga va uzoq organlarga metastaz berishi haqida ham ishonchli ma'lumot olish mumkin.

MSKT tekshiruvi jarrohlik amaliyotini rejalashtirishda ham muhim ahamiyatga ega. Ushbu usul yordamida o'smaning bosqichi aniqlanib, optimal davolash strategiyasi tanlanadi.

Xulosa

Multislice kompyuter tomografiya buyraklarda uchraydigan xavfli o'smalarni aniqlashda eng samarali diagnostik usullardan biri hisoblanadi.

MSKT yordamida o'smaning o'lchami, joylashuvi, tuzilishi va tarqalish darajasi aniq baholanadi. Ushbu usul kasallikni erta aniqlash, to'g'ri tashxis qo'yish va davolash taktikasini tanlashda muhim ahamiyatga ega.

References:

1. O'zbekiston Respublikasining maqullangan "Bolalarni ularning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish" to'g'risidagi qonuni. T.: 2017
2. Abbosxo'jayev O. Umarova N. Qo'chqorov R. Mafkura poligonlaridagi olishuv. T.: Akademiya, 2007
3. Do'stmuhammad Xurshid. Ommaviy axborot vositalarini rivojlantirishning demokratik andozalari. – Toshkent: O'zbekiston, 2005.
4. Qaxxorova SH. Global ma'naviyat- globallashuvning g'oyaviy asosi. T.: Tafakkur, 2009
5. <http://google.uz>